ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

ЁҚУБОВ ШАРИФ
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили 11

SHUKUROV AHAD AHMADOVICH
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar 15

AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi 18

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri 23

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati 40

DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli 49

МУНДАРИЖА

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA
Islomiy paremalogik religionimlar 53

ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi 56

RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI
Fors tilida otning semantik tasnifi 60

HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

YO‘LDOSHEVA NARGIZA
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) 71

ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA TAQINCHOQ NOMLARI SEMANTIKASI

Obloqulova Zilola Ulug‘bekovna,
Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti
Lingvistika: o‘zbek tili magistri

O‘zbek tilida buyumlar leksik birliklar tarkibida juda keng qo‘llaniladi. O‘zbek tili so‘z boyligining muhim qismini tashkil etuvchi bu leksik qatlam ming yillar davomida shakllangan va boyib kelgan. Ularning semantik qatlami o‘zbek xalqi turmush-tarzini qamrab oladi. O‘zbek tili lug‘atining mazkur turkum so‘zlarini o‘rganish nafaqat semantik xususiyati, uning tarixiy o‘tmishi haqida tushunchaga ega bo‘lishga sharoit yaratadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra, taqinchoq leksemasi uzuk, isirg‘a, marjon kabi taqiladigan zeb-ziynat buyumlaridir.

Taqinchoqlar tegishlilik darajasiga ko‘ra, vazifasiga ko‘ra, xususiyatiga ko‘ra kabi belgilari asosida bir qator guruhlarga birlashadi[1].

Taqinchoqlar xilma-xil bo‘lib, ular etnik va mahalliy hudud jihatdan, ko‘rinishi va qaysi toshdan yasalganligiga qarab farqlanadi. An'anaviy ayol taqinchoqlari inson jismining qayerida taqilishiga qarab uch asosiy guruhga bo‘linadi:

– *Boshga taqiladigan taqinchoqlar;*

– *Bo‘yin va ko‘krak taqinchoqlari:* arpajevak, gulband, zebigardon, nozigardon, tavq, tangajevak, bo‘yintumor, qo‘ltiqtumor, munchoq, qo‘shtumor;

– *Qo‘l taqinchoqlari*: uzuk, panja, ko‘zmunchoq, bilaguzuk

– Taqinchoqlar ayollarning yoshiga nisbatan ham taqilishiga ko‘ra farqlanadi.

Boshga taqiladigan taqinchoqlarga gajak, silsila, tillaqosh, bibishak, bargak, oyboldoq, halqa, qashqarbaldoq, shibirma, buloqi, to‘g‘nag‘ich, sirg‘a, par yoki pat kabilar kiradi.

Gajak so‘zining ma'nosi uchtadir:

1) ayollarning ikki chakkasidan tushib turgan soch tolalari, zulfi;

2) ayollarning ziynat buyumi; chakkaga taqiladigan juft taqinchoq. Asosiy shakli bodom ko‘rinishida bo‘lib, oxirgi qismi jingala kabi bukilgan; ikki ilgagi bo‘lib biri quloqqa, biri bosh kiyimiga yoki sochga mustahkamlanadi, shunda gajak chakkada gorizontal joylashadi. Buyum yuzasi mayda feruza ko‘zlar halqasi bilan o‘ralgan yirik rangli shisha ko‘zlar bilan bezatilgan, asosiga marjon va zig‘irakli shokilalar o‘rnatilgan, orqa tomonida qush pati o‘rnatishga mo‘ljallangan naychalari bor. Oltin, kumush va boshqa ashyolardan juft qilib yasaladi. Toshkent, Samarqandda tillaqosh bilan ansamblni tashkil qiladi. Buxoro, Samarqandda qo‘shgajak, yarim oy, bodombargi xillari ham tarqalgan;

3) zulf, jingala ko‘rinishdagi naqsh elementi; naqsh mujassamotida to‘ldiruvchi vazifani o‘taydi.

Oyboldoq – isirg‘a turi; oy shaklida bezaksiz qo‘lda (dastaki) yasaladi yoki quyma bo‘ladi. Zargarlar oltin, kumush, misdan turli shaklda ko‘zsiz qilib tayyorlaydi; ba'zan oy o‘rog‘i usti (o‘rtasi)ga metall sharcha ham ishlanadi.

Boldoq – ko‘zsiz silliq uzuk; isirg‘a turi, faqat halqadan iborat, nafis va bezakdor bo‘ladi. Turkistonda uning oy tasvirli oy boldoq, farg‘onacha boldoq, qashqarboldoq va boshqa turlari keng tarqalgan.

Halqa – zargarlik buyumi; O‘zbekiston hududida keng tarqalgan isirg‘a turi. Asosan Buxoro hududida quloqqa taqiladigan taqinchoq nomi shunday ataladi.

Halqa oltin yoki kumush sim bilan aylana shaklida ishlanadi. Amaliy bezak san'atida ko‘pincha halqaning quyi qismi rang-barang qilib bezatiladi, 2 tarafiga zig‘irak va naychalar ishlanadi. Eng sodda halqa panjarali qilib bezatiladi, ba'zan panjaraga zig‘irak, murakkablarida marjon, durlar qadaladi.

Qashqarboldoq – halqa shaklidagi isirg‘a turi. XVIII asrda Farg‘ona vodiysiga Qashqardan ko‘chib o‘tganlar tomonidan keltirilgan. Qashqarboldoqning mahalliy an'analarga yaqinligi uning tez tarqalishini ta'minlagan. Oltin va kumushdan tayyorlanadigan halqaning quyi qismidan o‘rtasigacha nozik sim (gulli) panjaralar ishlanib, markazi mayda zig‘irak (yoki mayda marvarid) lar bilan gulshakllar hosil qilib to‘ldiriladi, ba'zan feruza ko‘zlar, oltin yaproqchalar bilan boyitiladi.

[1] Kayumova Sh.K. Ingliz va o‘zbek tillarida taqinchoq nomlarining lingvokulturologik tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Termiz. 2023. – B. 58.

Shibirma – isirg‘a turi; XX asr o‘rtalarida yaratilgan. Zargarlar shibirmada shabaka usulini qo‘llab chiroyli shakl yechimiga erishgan. Barg (yurak) shaklidagi halqa ichi (markazi)ga dumaloq yoki oval shakli simli panjara ishlanib, durlar terilgan, spiral simli shokilalar osilgan.

Buloqi – bezak buyumi, burunga taqiladigan bejirim zirak. Ba’zan buloqiga qimmatbaho toshlardan ko‘z ham o‘rnatiladi. Farg‘ona vodiysida aravak (yoki “arabak”), ba’zi viloyatlarda (“lativa”) deb ataladi. O‘rta asrlarda Sharq (Arabiston, Hindiston) mamlakatlaridan Markaziy Osiyoga keltirilgan va bu asrlarda ayollar orasida buloqi taqish rasm bo‘lgan. Buloqi taqish uchun 3-5 yoshdagi qiz bolalarning burni (shu vaqtda qulog‘i ham) teshilgan. Kelin yoshiga yetib turmushga chiqqanidan so‘ng buloqi taqilgan. Hozir buloqi taqish urfdan qolgan.

Tillaqosh zargarlik buyumi, ayollarning bosh kiyimi ustidan peshonaga taqiladigan taqinchog‘idir[1]. Tilla yoki tilla suvi yugurtirilgan kumush va boshqa metallardan yasaladi. Tillaqosh asosi qayrilma qosh shaklidagi bir-biri bilan tutashgan joyga bir dona la’l qadaladi, bo‘laklar yuzasi naqshlar bilan bezatilib, yuqori cheti feruza ko‘zlar bilan hoshiyalanadi. Tillaqosh xotin-qizlarning tilladan yasalgan yoki tilla suvi yugurtirilgan, peshonaga taqiladigan bezak buyumidir[2].

Sh.Rahmatullayevning fikricha, “bu tojikcha tilla oti bilan o‘zbekcha qosh otidan tuzilgan bo‘lib, ayollarning tilladan yasalgan yoki tilla suvi yugurtirilgan, peshonaga taqiladigan bezak buyum ma’nosini anglatadi[3]. Ushbu so‘z o‘zbekcha matnlarda ham uchrab turadi. S.Anorboyevning “Mehr” qissasida qo‘llanilgan: “…Nazokatga kelin libosi kiydirilib, bo‘yniga dur - marvarid, yoqut, olmos ko‘zli kumush tumor, peshonasiga tillaqosh taqishadi…”[4].

Sirg‘a – quloqqa taqiladigan bezak buyumi; isirg‘a, zirak[5]. Sh.Rahmatullayevning ta’kidlashicha, “bu ot qadimgi turkiy tildagi “zich qilib, pishiqlab, tik” ma’nosini anglatadi[6]. Surxondaryo vohasining hozirgi Sherobod tumanida xotin-qizlar balog‘at yoshiga yetgach, quloqqa turli uy sirg‘a, oyboldoq sirg‘a, qozi sirg‘a, Muhammadi sirg‘alarni taqqan. Xususan, vohada aylana yoki bodomsimon sirg‘alar bo‘lib, “Halqayi Muhammadi” yoki “Muhammadi sirg‘a” deb nomlangan. Muhammadi sirg‘aning toq sonli osilchoqlari bo‘lib, ularning soniga qarab, uch oyoqli, besh oyoqli, yetti oyoqli, to‘qqiz oyoqli, o‘n bir oyoqli kabi turlarga bo‘lingan. Muhammadi sirg‘ani asosan boy xotinlar taqqan. Bu sirg‘ani voha ayollari Bibi Fotimaning sirg‘asi deb ishonishgan[7].

Arpajevak – xotin-qizlar bo‘yniga taqadigan ziynat buyumi, jevakning bir turi. Arpa shaklida ishlangan yupqa kumush yoki yuziga tilla suvi yuritilgan kumush donachalaridan iborat bo‘lib, qora ipak ipga bir dona marjon, bir dona arpa ketma-ket o‘tkazilib tayyorlanadi.

Gulband – zargarlik buyumi; ayollarning bo‘yin taqinchog‘i. Bo‘yinni o‘rab turadigan tasma hamda marjon va turli shakldagi noziklardan terib yaratiladigan to‘rsimon shokilali tuzilishga ega turlari bor. Ko‘krakkacha tushib turadigan shokilalar trapetsiya va boshqa shakllarda bo‘lib, gullari ramziy ma’nodagi shox, uchburchak, romb va handasaviy naqshlardan iborat.

Zebigardon yoki ***zebisina*** – zeb-ziynat buyumi, ayollarning bo‘yinga taqilib ko‘krakka tushib turadigan taqinchog‘i. Uch shakldor yirik turunj va unga ikki tomonidan simmetrik birlashgan olti huqqachalardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro halqa, sadaf, marjonlardan tuzilgan zanjirlar bilan bog‘langan; o‘rtadagi ikki parallel huqqacha markazida kichik turunji bo‘lgan zanjir orqali o‘zaro bog‘lanib uch qatini hosil kiladi. Markaziy yirik turunjning yuqori qismi uch yoki besh yaproqli g‘uncha shaklida, quyi qismining uchi pastga qaragan bodom ko‘rinishiga ega bo‘lib, shokilalar bilan hoshiyalangan.

Huqqachalar romb, zebigardon to‘rtburchak, aylana shaklida, ayrim zebigardonlarda so‘nggi yuqoridagi yakunlovchilari uch va besh burchakli qilib ishlangan. Turunj va huqqachalar bosma naqshlar, qimmatbaho toshlar, rangbarang shishalar bilan bezatilgan. Hudud jihatdan Toshkent, Samarqand, vodiysida keng tarqalgan.

Nozigardon – zargarlik buyumi; ayollarning bo‘yinga taqadigan taqinchog‘i. Nozigardon markaziy turunj, uning ikki yonidan ikkitadan to‘rtta murabba’ shaklli, bittadan uchburchak shaklli yaproqchalar-

[1] Kayumova Sh.K. Ingliz va o‘zbek tillarida taqinchoq nomlarining lingvokulturologik tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Termiz, 2023. – B. 87.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – B. 97.

[3] Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. I qism. – Toshkent: Mumtoz so‘z., 2010. – B. 252.

[4] Anorboyev S. “Mehr” qissasi / Guliston jurnali. – Toshkent, 1964. – B. 5.

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. IV jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – B. 525.

[6] Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. I qism. – Toshkent: Mumtoz so‘z., 2010. – B. 255.

[7] Hamidov M. Ayol borki, zargarga ish topiladi / Jadid jurnali. 14-son. – Termiz, 2024. – B. 6.

ning o‘zaro besh-olti qatorli zanjirlar bilan bir maromda ma’lum oraliqda birikishidan hosil bo‘ladi; yaproqchalarning yon tomonlariga baliq va boshqa shaklli shokilalar osiladi. Turunj va yaproqchalar panjarali (to‘rsimon) usulda yasalib, zig‘iraklar, ba’zan feruza ko‘zlar bilan ziynatlangan.

O‘zbek xalqining turmush tarzida uchraydigan tumorlar o‘zining shakli va tuzilishi jihatidan ma’lum darajada bir-biridan farqlanib turadi. Jumladan, Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida to‘g‘ri – to‘rtburchakli va uchburchakli tumorlar taqilsa, Xivalik o‘zbeklar orasida silindrsimon tumorlar keng tarqalgan. Tumorlar ba’zan juft, ya’ni qo‘sh bo‘lgan va bunday tumorlar “sarkift” deyilgan. Ko‘krak tumorni ham ba’zan xalq orasida “qo‘shtumor” deb atashgan. Ko‘krak tumor tarkibiga kiruvchi ashyolardan biri ko‘ylak o‘zining oxirida taqib yuriladigan tumor bo‘lib, u “peshavuz” deb ataladi. Katta tillarang qubbachadan iborat bu tumorga kumush mo‘ychinaklar, hilol (tish tozalagich), quloq, tirnoq tozalagichlar, surmadon, atirdonlar munchoqli zanjir yordamida osib qo‘yilgan[1].

Vohada bu ko‘rinishdagi tumorlar “kalit bog‘i”, “peshxalta” nomlari bilan atalib, ushbu taqinchoqni tumor o‘rnida ishlatishgan va u chorvachilik bilan kun kechiruvchi ayollarga juda asqotgan. Bundan tashqari, xalq qarashlariga ko‘ra, odamning joni qo‘ltig‘ida bo‘ladi degan tasavvurga ko‘ra, “qo‘ltiq tumor” ham elkadan o‘tqazilib, qo‘ltiq ostiga taqilgan. Bunday tumorlar go‘yoki odam tanasini himoya qiladi, deb sanalgan.

Ot totemi ham Xorazmda xosiyatli hisoblanib, uning tuyog‘idan yosh bolalarning do‘ppisiga tumor qilib taqib qo‘yiladi. Ba’zi hollarda turli xil balo- qazolardan asrash uchun otning kalla suyagi uyning darvozalariga ham osib qo‘yilgan. Ot go‘shtini vohada iste’mol qilinmasligi ham, ot taqasining e’zozlanib dahlizlarga osib qo‘yilishi ham, avvalo, ot totemiga sig‘inishga borib taqaladi. Qolaversa, “Avesto”da Gershasp, Purushasp, Vishtasp, Aspanja kabi ismlarning uchrashi ham ot totemining qadimiyligini ko‘rsatadi[2].

Bundan tashqari, Xorazmdagi ayrim udumlar ilonning totemi bilan aloqador. Vohada “Ilon boshi” nomi bilan ataluvchi oq rangli chig‘anoq toshi bo‘lib, uning yoriqchasi bo‘lgan. Yoriqchada tishga o‘xshagan bo‘rtmalar mavjud. Bu chig‘anoq ilgari yosh bolalarning do‘ppisiga tumor sifatida qadalgan. Ilonning po‘stini isiriqqa qo‘shib tutatish odati ham bugungi kunlargacha davom etib kelgan. Xalq orasida ilon kelgan uyga davlat keladi, ilon ko‘z tegishidan asraydi, degan irim ham bor[3].

Qo‘ltiq tumor – diniy tasavvurlarga ko‘ra, ko‘z tegishidan, turli ofat, balo, ins-u jins va shu kabidan saqlaydigan buyum. Tumor ichiga Qur‘on oyatlari bitilgan qog‘oz hamda ilohiy qudratga ega deb bilingan narsalar solingan. Duo yozilgan qog‘oz uch yoki to‘rtburchak qilib buklab, charm yoki matoga o‘rab tikilgan. Tumor, odatda, bo‘yinga, qo‘ltiqqa, sochga taqiladi yoki kiyimning ichki qismiga tikib qo‘yiladi.

Yovuz kuchlar va yomon ruhlar xurujidan saqlanish, ba’zan turmushda uchraydigan muammolar (farzandsizlik, oilada bolalarning turmasligi, turli kasalliklar) oldida ojizlik va sehr-joduning kuchlariga ishonish oqibatida ularga qarshi tura oladigan kishilarga sog‘liq, baxt, omad keltiruvchi, eng muhimi salomatlik garovi sifatida turli buyumlar, ashyolar yaratilgan. Mana shunday buyumlardan biri tumorlardir[4].

Qolaversa, bo‘rining tishi, ilon terisi, ayiq, burgut tirnog‘i, ilon va baliq suyagi ham himoya vazifasini bajargan va shu hayvonlarning kuch-quvvati, xislatlari kishiga o‘tadi degan qarashlar asosida ular taqinchoq tumor sifatida ham taqilgan. Tumorlar tananing qaysi qismiga taqilishiga ko‘ra–bo‘yinga, ko‘krakka, yelkaga, qo‘ltiqqa taqiladigan, bosh kiyim va chakkaga qistiriladigan tumorlarga bo‘lingan[5]. Tumorlar ichiga duolar, qaytarmalar bitilgan qog‘oz solib qo‘yiladigan qopqoqli kumush g‘ilofcha ko‘rinishida ham bo‘lib, g‘ilofchalarga bosma naqshlar, mayda toshlar qadalgan nozik sim to‘rlar bilan bezak berilgan. Xorazmda tumor taqinchoqlarning turlari ham ko‘p bo‘lib, shulardan biri bu ko‘zmunchoqdir.

Ko‘zmunchoq kichik – kichik ko‘z shakliga o‘xshash yaltiroq toshlardan iborat bo‘lib, asosan bolalarning do‘ppisiga qadalgan. Xorazmda ko‘z tegmasligi uchun ilishtirik cho‘p, pitanak, qora oq nuqtalar chizilgan mayda munchoqlar, qalampir taqilgan[6].

Ko‘zmunchoq – yuzasida oq ko‘z (xol)lari bo‘lgan qora yoki ko‘k rangli shishalardan yasaladigan munchoq. Yomon ko‘zdan asrasin degan e‘tiqod bilan, asosan, bolalarga (ipga tizib, kiyim, bo‘yin, qo‘lga) taqiladi.

[1] Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент, 1988. – С. 204.

[2] Рўзимбоев С. Хоразмдаги тотемлар: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати. – Хоразм, 2006. – Б. 3.

[3] Дала ёзувлари. Хива тумани. 2004.

[4] Борозна Н.Г. Некоторые материалы об амулетах-украшениях населения Средней Азии. – М.: 1975. – С. 281-298.

[5] Азизова Н.К. Ювелирные изделия Узбекистан. Монография. – Тошкент, 1968. – С. 106.

[6] Дала ёзувлари. Шовот тумани, Қиёт қишлоғи. 2007 йил.

Rezyume. Maqolada o‘zbek tilida taqinchoq nomlarining semantikasi tahlil qilinadi va tavsiflanadi. Tadqiqotda taqinchoqlarning xilma-xilligi, ularning etnik va mahalliy hudud jihatdan turlanishi va qanday ashyodan yasalishi yoritiladi. Shuningdek maqolada taqinchoqlarning inson tanasining qayeriga taqilishiga qarab guruhlanishi haqida so‘z boradi. Bundan tashqari ushbu maqolada taqinchoqlar insonlarning diniy qarashlari bilan boğliq tasavvurlarini özida aks ettirganligi böyicha tadqiqot olib boriladi. Hamda taqinchoq sifatida hayvonlar va ularning tana a’zolaridan foydalanishgani va ular nimalarga ishora qilganligi haqida fikr yuritiladi.

Resume. The article analyzes and describes the semantics of jewelry names in the Uzbek language. The study highlights the diversity of jewelry, their ethnic and local variations, and the materials from which they are made. The article also discusses the grouping of jewelry based on the part of the human body where they are worn. Furthermore, the article explores the connection between jewelry and people’s religious beliefs. It also examines the use of animals and their body parts as jewelry and what they symbolize.

Резюме. В статье анализируется и описывается семантика названий украшений на узбекском языке. В исследовании освещается разнообразие украшений, их этническая и региональная вариативность, а также материалы, из которых они изготовлены. Кроме того, в статье рассматривается классификация украшений в зависимости от того, на какую часть тела человека они надеваются. Также в данной статье проводится исследование того, как украшения отражают религиозные представления людей. Кроме того, рассматривается использование животных и их частей тела в качестве украшений и то, на что они указывают.